

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI  
SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SAMARQAND VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023- YIL YANVAR-MART**

**Samarqand – 2023- y.**

## SO‘Z BOSHI

Samarqand viloyatining statistik axborotnomasi – Samarqand viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Samarqand viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023- yil yanvar–mart oylari yakunlari bo‘yicha viloyatning asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda, 2018- yilning II-choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umum davlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan.

Xususan, foydalani layotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni, ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari).

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (A-seksiyada “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi ichki mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 12 ta tematik qismdan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, narx, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>5-6</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT</b>	<b>7-16</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>17-24</b>
<b>III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI</b>	<b>25-6;</b>
<b>IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH</b>	<b>50-69</b>
<b>V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI<sup>1)</sup></b>	<b>70-75</b>
<b>VI. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)</b>	<b>76-77</b>
<b>VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI</b>	<b>78-91</b>
<b>VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR</b>	<b>92-97</b>
<b>IX. ISTE'MOL BOZORI</b>	<b>98-102</b>
<b>X. TRANSPORT</b>	<b>103-111</b>
<b>XI. XIZMATLAR</b>	<b>112-115</b>
<b>XII. DEMOGRAFIYA</b>	<b>116-121</b>
<b>XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>122-127</b>

## Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	—	yalpi hududiy mahsulot	1.	—	litr
%	—	foiz	0,0	—	katta bo‘limgan miqdor
mlrd.	—	milliard	m	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln. AQSh doll.	—	million AQSh dollari	ga	—	hektar
kv.	—	kvadrat	tn.	—	tonna
km.	—	kilometr	<sup>1)</sup> , <sup>2)</sup> , <sup>3)</sup> .....	—	izohning mavjudligi
m.	—	metr			

**Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar**  
**2023- yil yanvar-mart**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan, foiz hisobida</i>
--	-------------------	--

<b>Yalpi hududiy mahsulot</b>	<b>12 419,1</b>	<b>103,6</b>
Sanoat mahsuloti	6 738,6	103,6
Iste’mol tovarlari	3 315,9	109,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	5 113,4	102,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 045,6	130,7
Qurilish ishlari	1 735,2	107,4
Chakana tovar aylanmasi	5 583,3	102,3
Xizmatlar, jami	6 105,8	106,5
Eksport ( <i>mln. AQSh doll.</i> )	134,8	99,6
Import ( <i>mln. AQSh doll.</i> )	459,0	112,8

**Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha viloyatning  
Respublikadagi ulushi (yanvar-mart)**

	O‘zbekiston Respublikasi		Samarqand viloyati		Viloyatning Respublikadagi ulushi, % da	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘tgan yilga nisbatan, % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘tgan yilga nisbatan, % da</i>	<i>2022- yilda</i>	<i>2023- yilda</i>
<b>Yalpi ichki (hududiy) mahsulot</b>	<b>198 483,5</b>	<b>106,1</b>	<b>12 419,1</b>	<b>103,6</b>	<b>6,3</b>	<b>6,3</b>
Sanoat mahsuloti	130 997,6	104,1	6 738,6	103,6	5,0	5,1
Istemol tovarlari	40 013,6	105,1	3 315,9	109,3	11,2	8,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot(xizmat)lari	40 416,3	103,2	5 113,4	102,8	13,1	12,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	56 557,6	103,1	5 045,6	130,7	7,2	8,9
Qurilish ishlari	27 024,5	102,4	1 735,2	107,4	6,4	6,4
Chakana savdo tovar aylanmasi	59 050,8	105,2	5 583,3	102,3	9,7	9,5
Xizmatlar, jami	96 758,0	110,9	6 105,8	106,5	6,7	6,3
Eksport ( <i>mln. AQSh. doll</i> )	5 688,9	97,4	134,8	99,6	2,3	2,4
Import ( <i>mln. AQSh. doll</i> )	9 090,8	123,4	459,0	112,8	5,5	5,0

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-martida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 12 419,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,6 % ga o'sdi.

*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

### 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	mlrd. so 'm		
	Mlrd. so 'm	2022- yil	2023- yil
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>10 533,1</b>	<b>12 419,1</b>	<b>103,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 200,2	12 059,0	103,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	332,9	360,1	106,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>10 200,2</b>	<b>12 059,0</b>	<b>103,5</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 488,4</b>	<b>2 892,7</b>	<b>102,8</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 439,8</b>	<b>2 943,9</b>	<b>104,6</b>
Sanoat	1 774,4	2 200,3	103,6

Qurilish	665,4	743,6	107,4
<b>Xizmatlar</b>	<b>5 272,0</b>	<b>6 222,4</b>	<b>103,3</b>
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	938,3	1 116,1	103,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	878,3	1 034,3	103,9
Boshqa xizmatlar	3 455,4	4 072,0	103,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 008,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 % ga yuqoridir.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 24,0 % ni, sanoat tarmog'i 18,2 % ni, qurilish 6,2 % ni va xizmatlar sohasi 51,6 % ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 9,3 % ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 8,6 % ni va boshqa xizmat tarmoqlari 33,7 % bo‘ldi.



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan, % da)**

		2022- yil	2023- yil
	<b>I. YaHM</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,8	97,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	2,9
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>24,4</b>	<b>24,0</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>23,9</b>	<b>24,4</b>
	sanoat	17,4	18,2
	qurilish	6,5	6,2
<b>Xizmatlar</b>		<b>51,7</b>	<b>51,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,2	9,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,6	8,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	33,9	33,7



## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2022- yil



2023- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,0 %), sanoatda – 103,6 % (18,2 %), qurilishda – 107,4 % (6,2 %), xizmatlar sohasida – 103,3 % ni (51,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,5 % (9,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,9 % (8,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (33,7 %) iborat bo'ldi.



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,6 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,6 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 2,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.



2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida – 119,7 % va xizmatlar sohasida – 114,2 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (iamiga nisbatan % da)**



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 66,7 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-martida 67,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

## **Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati)** doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarda hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

## II.SANOAT


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 6 669 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1570 taga yoki 19,1 % ga kamaygan.

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 350 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 49 tasi Samarqand shahriga, 41 tasi Pastdarg'om tumanida, 35 tasi Urgut tumanida va 35 tasi Samarqand tumanida ro'yxatga olingan.


### **2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari**

	<i>Faoliyat yuritayotgani</i>	<i>shundan</i>		<i>yanvar-mart oylarida tashkil etilgan</i>	<i>birlikda</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>		
<b>Jami</b>	<b>6 669</b>	<b>54</b>	<b>8 792</b>	<b>350</b>	
Samarqand sh.	1 294	22	1 270	49	
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	246	1	245	15	
Oqdaryo	285	1	283	18	
Bulung'ur	254		254	16	
Jomboy	337	4	333	13	
Ishtixon	403	1	402	23	
Kattaqo'rg'on	380	2	378	18	
Qo'shrabot	166		166	11	
Narpay	193	3	190	6	
Payariq	282	2	279	24	
Pastdarg'om	568	3	565	41	
Paxtachi	198	3	194	11	
Samarqand	681	5	676	35	
Nurobod	151	1	150	9	
Urgut	894	4	890	35	
Toyloq	337	2	334	26	

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
*(2023- yil 1- aprel holatiga)*



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
*(2023- yil yanvar-mart)*



Viloyatda sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 738,6 mldr. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,6 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 3 315,9 mlrd. soʻmlik isteʼmol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1 586,9 mlrd. soʻmlik oziq-ovqat mahsulotlari hamda 1 790,0 mlrd. soʻmlik nooziq-ovqat mollari (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan mos ravishda 109,0, 109,5 foiz) ishlab chiqarildi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyalarini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida 482,0 mlrd. soʻmlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	Hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, % da
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>6 738,6</b>	<b>103,6</b>
<b>Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>56,7</b>	<b>51,2</b>
shu jumladan:		
boshqa turdag'i togʻ-kon sanoat	56,6	51,2
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>6 560,6</b>	<b>106,3</b>
shu jumladan:		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	2 675,1	106,8
Toʻqimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1 657,1	98,2
Yogʼoch va poʼkak buyumlar, poxol va toʼqish uchun materiallardan buyumlar, qogʼoz va qogʼoz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	96,3	82,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	6,4	104,2
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	15,3	234,0
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	115,0	73,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	29,8	1,2

	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	207,7	100,3
Metallurgiya sanoati	719,6	137,9
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarini ta’mirlash va o’rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	698,9	89,3
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash</b>	<b>74,8</b>	<b>36,7</b>
<b>Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>46,5</b>	<b>105,1</b>

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

2023- yil yanvar-mart

2022- yil yanvar-mart



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

## Ishlab chiqarilgan xalq iste'moli mollari

	yanvar-dekabr oylarida, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2022- yil	2023- yil	


Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	3 035,0	3 315,9	109,3
---------------------------------------	---------	---------	-------

*shu jumladan:*

Oziq-ovqat tovarlari	1 456,2	1 586,9	109,0
Nooziq-ovqat tovarlari	1 578,8	1 729,0	109,5

■ 2022- yil yanvar-mart

■ 2023- yil yanvar-mart



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari turlarini  
ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo‘yicha)**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yilga nisbatan, % da</i>
<b>Qayta ishslash sanoati</b>			
Tarkibida uchta ta’minlovchi element - azot, kалия va fosfor bo‘lgan mineral yoki kimyoviy o‘g‘itlar - ming tonna	ming tn.	4,7	23,2 m.
Aroq	ming l. 100% spirit	11,4	44,2
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirit nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100% spirit	5,2	86,7
Uzum vinosi	ming l.	25,6	77,0
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	ming l.	3 798,0	63,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	ming tn.	23,9	56,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni(buxanka), og‘irligi 600 g	tn.	185,5	115,7
Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	tn.	9 437,0	122,4
Paxta tolasi	ming tn.	22,4	122,9
Paxta chigit	ming tn.	33 313,5	109,9
Paxta tiviti (lint)	tn	1 879,1	82,7
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi	mln.kVt/s	9 528, 8	11,4
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)	ming Gkal.	2 429397,4	68,7

**2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan, % da</i>	<i>Aholi jon bosigiga, ming so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan, % da</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6 738,6</b>	<b>103,6</b>	<b>1 632,4</b>	<b>101,4</b>
Samarqand sh.	3023,4	103,4	5264,6	101,4
Kattaqo‘rg‘on sh.	107,9	115,4	1151,9	113,4
<b>tumanlar:</b>				
Oqdaryo	116,6	114,3	687,4	111,5
Bulung‘ur	137,0	114,8	692,0	112,4
Jomboy	767,6	101,4	4140,1	98,9
Ishtixon	244,8	108,2	904,2	105,9
Kattaqo‘rg‘on	239,4	104,8	829,8	102,7
Qo‘shabot	22,4	111,7	160,9	109,5
Narpay	128,8	84,1	575,4	82,5
Payariq	165,1	101,3	616,8	98,8
Pastdarg‘om	232,0	104,9	617,2	102,8
Paxtachi	199,2	109,5	1326,2	108,0
Samarqand	467,7	101,8	1745,9	99,6
Nurobod	62,4	66,1	390,8	64,8
Urgut	413,6	83,5	756,0	81,4
Toyloq	410,7	122,0	1898,8	95,4

**2023- yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2022- yilga nisbatan, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga, ming so'mda</i>	<i>2022- yilga nisbatan, % da</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 215,9</b>	<b>109,3</b>	<b>803,2</b>	<b>106,9</b>
Samarqand sh.	1033,9	114,3	1 800,2	112,1
Kattaqo'rg'on sh.	66,5	191,8	709,6	188,6
tumanlar:				
Oqdaryo	77,4	206,3	456,4	201,3
Bulung'ur	115,5	144,7	583,3	141,6
Jomboy	320,6	111,7	1 729,3	109,0
Ishtixon	136,6	164,4	504,4	160,9
Kattaqo'rg'on	182,0	116,7	630,7	114,4
Qo'shrabot	16,9	130,6	121,0	128,0
Narpay	56,3	110,4	251,4	108,3
Payariq	63,8	114,9	238,2	112,0
Pastdarg'om	139,9	136,0	372,4	133,2
Paxtachi	49,4	221,7	328,8	218,6
Samarqand	355,0	102,1	1 325,1	99,9
Nurobod	13,7	72,8	85,6	71,4
Urgut	353,9	75,1	646,9	73,3
Toyloq	334,7	90,5	1 547,2	88,3

### III.QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi 5 113,4 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 4 884,4 mlrd. so'm (103,1 % ni), o'rmon xo'jali 224,5 mlrd. so'm (95,8 % ni), baliq xo'jaligi 4,5 mlrd. so'm (106,8 % ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,6 % ni tashkil etdi.



**5 113,4**

**Samarqand viloyati bo'yicha  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

**01**



**4 884,4**

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

**02**



**224,5**

**O'rmon xo'jaligi**


**03**




**4,5**

**Baliq xo'jaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati, % da




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiyl hajmining taqsimlanishi (%)**



2023– yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiyl hajmining 95,5 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 4,4 % i o‘rmon xo‘jaligi, 0,1 % i baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023– yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (652 mlrd. so‘m) va Toyloq (505 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahri (19 mlrd. so‘m) va Samarqand shahrini (25 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Toyloq tumani (109,7 %), Oqdaryo (109,3 %), Nurobod (107,6%), Jomboy (107,7 %) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati, % da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023– yilning yanvar–mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4 832,5 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 166,7 mlrd. so‘m (87,9 %)ni, chorvachilik mahsulotlari 4 665,8 mlrd. so‘m (103,6 %)ni tashkil qildi.


### **Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (%)**



### **Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,8 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 9,3 % – fermer xo‘jaliklariga, 1,9 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


### Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da




2023– yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (33,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (100 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (58 %) qayd etildi.

### Sabzavotlar


Hajmi, ming tn.



O‘zgarish sur’ati



yetishtirilgan mahsulotning  
xo‘jalik toifalari bo‘yicha  
taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 2,1 ming tonna sabzavotlar (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 60,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 46,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



**Samarqand viloyati bo'yicha  
sabzavotlar yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Chorvachilik



2023– yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmi 4 665,8 mlrd. so‘mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 67,8 ming tonna go’sht (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 6,2 % ga ko‘p), 284,5 ming tonna sut (1,3 % ga ko‘p), 200,5 mln. dona tuxum (2,7 % ga ko‘p) va 166,2 tonna baliq (32,8 % ga ko‘p) ovlandi.

### Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'zgarish sur'ati



**yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 67,8 ming tonna go'sht (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 6,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 93 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 284,8 ming tonna sut (2022–yilning yanvar–martiga nisbatan 1,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiylajmidan 96,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha  
yetishtirilgan  
sut hajmi, tonna**




## Tuxum


**Hajmi, ming. dona**



**O'zgarish sur'ati**



**yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 200,5 mln. dona tuxum (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 2,7 % ga ko‘p) yetishtirilgan. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiylajmidan 43,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.




**Samarqand viloyatining hududlari bo‘yicha  
tuxum yetishtirish  
hajmi, ming dona**




## Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



**yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 166,2 tonna (2022– yilning yanvar–martiga nisbatan 32,8 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiylajmidan 49,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni, o'sish sur'ati




2023– yining 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,5 % i dehqon xo‘jaliklariga, 0,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 88,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 13,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 85,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiylar sonidan 38,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 47,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 14,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiylar bosh soni 1 550,4 ming taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollarning bosh soni 29,2 ming taga (1,8) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'zgarish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati  
bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning  
umumiyl bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 679,6 ming taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 18,7 ming taga (2,7 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


#### **Soni, ming bosh**



#### **O‘sish sur’ati**



#### **Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




Samarqand viloyati  
bo‘yicha sigirlarning  
umumiyl bosh soni,  
ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 533,3 ming taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 49,8 ming taga (2 %) ko‘paydi.

### Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O‘zgarish sur’ati**



**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 88,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




**Samarqand viloyati bo‘yicha  
qo‘y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiyl bosh soni 27 751 taga yetdi. 2022 – yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 570 taga (0,2 %) ko‘paydi.


### Otlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 85,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.




**Samarqand viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiyl bosh soni, bosh**




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 12 247,5 ming taga yetdi. 2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 201,7 ming taga (1,6 %) ko‘paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘zgarish sur’ati**



**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 47,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo‘yicha  
parrandalarning  
umumiyl bosh soni,  
ming bosh**




## I. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2023- yilning yanvar-mart oylarida **5 045,6 mlrd. so‘m** asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **130,7** foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 456,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 9,0 % va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 71,4 % o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4589,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 91,0 % va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 142,4 % o‘zlashtirildi.



**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar**  
(2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Hajmga nisbatan % da
<b>Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar</b>	<b>5 045,6</b>	<b>130,7</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>456,3</b>	<b>71,4</b>	<b>9,0</b>
Byudjet mablag‘idan	346,5	2,6 m.	6,9
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	89,6	18,9	1,7

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	20,2	65,9	0,4
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>4 589,3</b>	<b>142,4</b>	<b>91,0</b>
Korxona o'z mablag'lari	1 071,6	127,5	21,2
aholi mablag'lari	296,2	84,2	6,0
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	1 616,8	153,1	32,0
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 604,7	163,3	31,8


**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-mart)



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-mart)



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'i hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 153,1% tashkil etdi.


## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>5 045,6</b>	<b>130,7</b>	<b>1706,4</b>	<b>111,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Samarqand sh.	1 171,0	113,8	189,7	3,5 m.
Kattaqo‘rg‘on sh.	61,4	146,7	4,6	-
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	140,2	133,5	-	-
Bulung‘ur	88,1	172,7	4,3	71,1
Jomboy	172,0	2,1 m.	67,4	2,9 m.
Ishtixon	95,0	119,9	2,0	7,1
